



## BERUNIYNING ADABIY QARASHLARI

Xayrullayeva Gulasal Anvar qizi,  
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207379>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning adabiy asarlari, uning adabiyotshunoslikka qo‘shgan hissasi va o‘zi yozgan she‘rlari haqida so‘z yuritiladi. Boshqa fan sohasiga oid “Mineralogiya” asari adabiy nuqtayi nazardan tahlilga tortiladi.

*Kalit so‘zlar:* Abu Rayhon Beruniy, “Mineralogiya” asari, adabiyot, she‘r, adabiy janrlar, rivoyat, hikoyat, tahlil.

Abu Rayhon Beruniy aniq fanlar bo‘yicha buyuk olim bo‘lishi bilan bir qatorda adabiyotni chuqur mushohada etgan, she‘r nazariyasini mukammal o‘rgangan, badiiy ijod bilan shug‘ullangan o‘tkir adib ham bo‘lgan. U fanning qaysi bir sohasida asar yozmasin, albatta, she‘rlar, go‘zal o‘xshatishlar, maqol-u ibratli hikoyatlardan unumli foydalangan. Uning “Kitob ut-ta‘allul bi-holati-l-vahmi fi ma‘oni nazmi uli-l-fazl” (“Fazl ahlining she‘rlarda aytilgan fikrlarini bayon qilish kitobi”) hamda “Kitobu muxtori ash‘or va-l-osor” (“Tanlangan she‘rlar va asarlar kitobi”) kitoblari ham aynan adabiyotga oiddir. Bu haqda A.Irisov shunday yozadi: “Olim adabiyotni chuqur o‘rgandi. O‘zi o‘tkir satirik shoir ham edi. Shu bilan birga lingvist, grammatik ham edi. U arab, fors tillaridan tashqari hindlarning ham grammatika va she‘rlari ustida, ularni arab grammatikasi va aruz qoidalari bilan bog‘lab ko‘p tekshirishlar olib bordi va bu haqda o‘z mulohazalarini qoldirdi”[3:55]. Darhaqiqat, adib “Hindiston” asarida hind she‘r tizimlari, vaznlari haqida to‘laqonli fikr yuritgan. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va “Geodeziya” asarlarida turli xalqlarga oid afsona va miflar uchraydi. “Mineralogiya” va “Saydana” asarlarida esa arab she‘riyatidan namunalar keltirilgan.

Abdufattoh Rasulov o‘zining maqolasida Beruniy qalamiga mansub she‘rlarni tahlilga tortadi[5:2]. Bu maqolada Beruniyning arab tilida bitilgan o‘ttiz besh bayt – jami 70 misra she‘ri asliyatdagi shakli bilan birga keltirilib izohlangan. Beruniy Abul Fath Bustiyni madh etib 17 baytli she‘r yozgani haqida ham ma‘lumotlar uchraydi. Yoqut Hamaviy uning she‘rlari to‘g‘risida shunday deydi: “Bu she‘rlar yuksak darajada bo‘lmasa ham, Beruniy kabilardan sodir bo‘lishi tahsin etarlidir”[10:312]. Beruniyning quyidagi she‘rida shon-shuhratga berilgan ayrim insonlarning qiyofasi ochib berilgan:

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Kim uchsa sa'y-jahd qilmay shuhratga,  
Karam libosiga bo'lsa qancha och.  
G'aflat soyasida shod yotar, ammo  
Sharaf kiyimisiz qolar yalang'och.

Ushbu she'rda ko'tarilgan mavzu bugungi kun uchun ham o'zining dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda.

Beruniy umrining oxirgi yillarida o'zi yozgan asarlarini jamlab bir ro'yxat tuzadi va uni "Fihrist" deb nomlaydi. Bunda olimning 113 asari va ularning qisqacha bayoni berilgan. Ushbu ro'yxatda Beruniy adabiyotga oid 18ga yaqin asar yozgani aytib o'tilgan[7:76].

Beruniy "Fihrist"ning bir bobida "Vomiq va Uzro" qissasini, "Qasim us-surur va ayn ul-hayot", "Urmuzdyor va Mehriyor", "Bomiyonning ikki sanami", "Dodmah va Kiromiduxt", "Nilufar" dostonlarini tarjima qilganini aytib o'tadi. Bundan tashqari mashhur arab shoiri Abu Tammom Habib ibn Avs she'rlariga sharh bitgan bo'lib, u "Abu Tammomning alif qofiyali she'rlariga sharh" deb nomlanadi. Bularning barchasi Beruniyning aql-zakovati adabiyot sohasini ham chetlab o'tmaganini ko'rsatadi.

Adibning "Mineralogiya" asari turli metall va minerallarga bag'ishlangan bo'lsa-da, adabiyotga oid bir necha xil janrlar, xususan, she'r, hikoyat va rivoyatlarga nihoyatda boyligi bilan alohida ajralib turadi. Akademik I.Y.Krachkovskiy: "Beruniy ko'p yillik maxsus izlanishlarini faqat ilmiygina emas, balki badiiy adabiyot, faqat original arab adabiyotigina emas, boshqa tillardan o'tgan adabiyot namunalari bilan boyitdi"[9:248], – deb ta'kidlaydi. Shuningdek, adib asar bag'riga Qur'oni Karim oyatlarini ham mohirlik bilan singdirib yuborgan. Bu esa olimning islom dinini hamda ushbu muqaddas kitobni chuqur bilishidan darak beradi.

"Mineralogiya"ning birinchi qismida berilgan yoqut to'g'risidagi bobda 26 she'riy parcha, 30 hikoya va hodisalar ta'rifi berilgan. Rivoyatlarning ko'pchiligi hayotda bo'lib o'tgan voqealar bo'lib, Beruniy ularni turli kitoblarda o'qigan yoki ayrim kishilardan eshitgan. Beruniy asarda ko'plab voqealarni hikoya tarzida keltiradi, ulardan ibratomuz xulosalar chiqaradi. U keltirgan hikoyatlarga asos bo'lgan hodisalarning ko'pi tarixiy shaxslar bilan bog'liq. Quyidagi rivoyatda ham Beruniy o'sha davrdagi xalifa Xorun ar-Rashid haqida so'z yuritadi:

Xorun ar-Rashidning kanizaklaridan birining husn-u latofatda tengi yo'q ekan. Xalifa cho'rilarga sovg'a-salom ulashgan paytlarda boshqalar zo'r minnatdorchilik bilan qabul qilar, u esa mutlaqo olmas ekan. Bundan xalifa qattiq g'azabga kelardi.



Bir kuni u qimmatbaho toshlarni cho‘rilarning oldiga to‘kdi. Kanizaklar ularni tera boshladilar. Bu go‘zal esa toshlarga hatto qo‘l ham uzatmadi. So‘ng xalifa boshqa toshlarni keltirmoqqa buyurdi va ulardan tanlab-tanlab oldilar. Hamma o‘z ulushini oldi, cho‘ri qiz tag‘in beparvoligicha turaverdi.

– Nega boshqalar qatori o‘z ulushingni olmading? – deb so‘radi, undan xalifa.

– Bordi-yu, shu yerdan o‘zimga yoqqan narsani tanlasam meniki bo‘ladimi? – deb so‘radi go‘zal cho‘ri qiz.

– Mayli, sening aytganingcha bo‘lsin.

– Unda, – dedi qiz Xorun ar-Rashidning qo‘lidan tutib, – mana mening barcha qimmatbaho toshlar ichida tanlaganim.

Xorun ar-Rashid g‘oyat quvondi va uni “Xolisa” deb atadi. Bu kanizak boshqalardan ko‘proq uning mukofot va sovg‘alar jihatidan diqqat-e‘tiboriga sazovor bo‘ldi[1:53].

Aynan mana shu ibratomuz rivoyatning o‘zi ham asarning qimmatini yanada oshirgan. Asarda shunga o‘xshash ko‘plab tarixiy rivoyatlar o‘rin olgan bo‘lib, “Mineralogiya” asari faqatgina mineral toshlar haqida ma‘lumot beruvchi kitob emas, balki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham tadqiq etilishi lozim bo‘lgan muhim adabiy manba ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Beruniy asarda nafaqat o‘z fikrlarini asoslash uchun, balki kitobxonni o‘sha davrdagi arab she‘riyatidan bahramand etish maqsadida 259 o‘rinda she‘riy parchalar keltiradi. Ular bejiz berilmagan, har birining o‘ziga xos o‘rni va vazifasi mavjud. Beruniy ilmiy merosi tarkibida adabiy-nazariy qarashlar bilan birga o‘ziga zamondosh bo‘lgan shoirlar ijodiga munosabat yetakchilik qiladi. “Mineralogiya” asarida 84 ta shoir ijodidan namunalar keltirilgan. Ar-Roiy, Abu Toyiyb al-Mutanabbi, Ibn ar-Rumiy, Al-Buhturiy, An-Nabig‘a, Al-Muhabbala as-Sa‘diy, Al-Ajjoj, Abu Bakr al-Forisiy, Ibn al-Mu‘taz shular jumlasidandir. Bundan tashqari muallif ushbu asarida arab va fors tillarida baravar ijod qilgan Hamza Isfahoniy, Abu Bakr ibn Husayn Ko‘histoniy, Abul Qosim ibn Bobak Jurjoniy, Mansur Muvarrid Forsiy, Gadoiriy, Darshor ibn Burd, Abu Mansur Saolibiy, Abubakr Xorazmiy, Xotibiy ibn Nasrovayh Samarqandiy va boshqalar ijodiga ham murojaat qiladi.

Beruniy bu asarda saxiylik va muruvvat haqida fikr yuritar ekan, o‘z fikrlarini she‘riy parchalar orqali asoslab beradi:

Ali ibn-Johim degan:

Saxiy gar bemol-u mulk, uyatmas, bu bandalikdir.

Yo‘qsa ezgulikka rag‘bat – baayni sharmandalikdir.



Yana boshqa bir shoirning she’rini ham keltiradi:

Shavkatlilar ichida eng shavkatlisi

Tonggi, kechki ichimligin vaqtida ichgan emas,

Tun ham, tong ham dushmanga zarba berib,

Do‘stga naf keltirgan kas.

“Mineralogiya” kitobida she’riy parchalarning keltirilish sababini Beruniy shunday izohlaydi: “Bizning maqsadimiz arablarda bor narsalar va arablarning she’riyatini ko‘rsatishdir”. Demak, Beruniy bu kitobda she’riy parchalar keltirar ekan, ulardan faqat ma’lum hollarni izohlash maqsadinigina emas, balki, umuman, o‘sha davrdagi yoki undan oldinroq arab tilida mavjud bo‘lgan she’riyat to‘g‘risida o‘quvchida tasavvur uyg‘otish vazifasini ham o‘z oldiga qo‘ygan[6:97]. Atoqli olim Aziz Qayumov ham Beruniyning bu usulini shunday ifodalaydi:“Bu asarlarda Beruniyning adabiyotga, adabiy ijodga aloqasi ma’lum darajada izhor etilgan. U adabiy ijodga oid muhim ma’lumotlarni xabar qiladi, she’riy parchalardan keltirilgan misollar orqali o‘z fikrlarini isbotlaydi, xalq og‘zidagi turli-tuman afsonalardan ustalik bilan ilmiy asarlarida istifoda etadi. Beruniy o‘zining asarlarini badiiy parchalar bilan bezab, ularning jonli va qiziqarli bo‘lishiga katta ahamiyat bergan. U har doim o‘quvchining diqqatini jalb qilishi, uning zerikib qolmasligiga e’tibor etishi shart ekanini uqtiradi”[6:6]. Beruniy biror voqea-hodisa she’r orqali ifodalanganda kishilarning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi, degan fikrda bo‘lgan. Bu fikr juda to‘g‘ri, negaki she’r inson ongiga tez ta’sir qiladi, inson qalbini junbushga keltiradi. Nasrdan ko‘ra nazmning ta’sir kuchi kengroqdir. Shu sababli oddiy hikoya tarzida aytilgan gapdan ko‘ra she’riy tarzda ifodalangan voqea inson xotirasida abadiy muhrlanib qoladi.

Asarda Abu Mansur as-Saolibiyning ham bir she’ri keltirilgan bo‘lib, unda o‘sha davrdagi xattotlardan biri Ali ibn Muqlaning yozuvi haqida gap ketadi: Ibn Muqlaning yozuvi shundayki, unga ko‘z solgan kishining barcha organlari ko‘zga aylanib ketishini istaydi.

Dur hasaddan sarg‘ayadi, u yozuvni maqtaganlarida

Gul esa uning guldorligi qarshisida xijolatdan qizaradi. [1:101]

Qimmatbaho toshlar va ma’danlar tasnifiga bag‘ishlangan bu asarda ayrim la’l va ma’danlar haqida ma’lumot berarkan, u haqda adiblarning fikrlarini ham keltiradi. Masalan, adib asarning “Lu’lu” bobida adabiyot masalalariga to‘xtaladi. Shoir qo‘llagan badiiy san’atlarning o‘sha tasvirdagi narsa yoki hodisaga mos kelish-kelmasligini sharhlarkan, bir shoirning arab tilidagi she’rning mazmuni



Mening qalbim nozik qomatli, beli niholday harakatlanuvchi jononga qaratilgan, U qiz husn-u jamolda dengiz qirg‘oqqa uloqtirgan gavhardek baytidagi tashbeh qo‘llanilishi haqida “Lekin bu o‘xshatish ma‘no jihatidan to‘g‘ri emas, chunki gavhar qirg‘oqqa uning chig‘anog‘i o‘lgandan keyingina uloqtiriladi. Bunday holda esa gavhar yemirilish va o‘zgarishlardan buzilgan bo‘ladi” – deb yozadi. Shoirning tashbehi haqida ma‘dansunos allomagina bunday nozik kuzatish qilishi mumkin[8:93]. Bu hol Beruniy ilmiy uslubining o‘ziga xos tomoni bo‘lib, ayni holatni chuqur ilg‘agan akademik Aziz Qayumov “Beruniy va adabiyot” asarida ulug‘ alloma tilidan hikoya qiladi: “Biz she‘riy parchalarni ko‘p-ko‘p keltiramiz, ular orqali fikrlarimizni isbot qiluvchi dalillar va ma‘lumotlarni bayon qilamiz, izohlaymiz... she‘r o‘quvchiga huzur va rohat bag‘ishlaydi, uzoq yo‘l bo‘yidagi buloqlar singari dam olish va hordiq chiqarishga xizmat qiladi”[6:154].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Beruniy fanning boshqa sohalari bilan bir qatorda adabiyotni ham chuqur tushunadigan, tahlil qila oladigan mohir adabiyotshunos bo‘lgan. Uning adabiyot faniga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Shoirning o‘zi yozgan she‘rlari hamda adabiyotga oid asarlari fikrimizning yaqqol dalilidir. Adibning “Mineralogiya” asari adabiyotimiz uchun ham buyuk adabiy manba vazifasini o‘taydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абу Райхон Беруний. Минералогия. Қимматбаҳо жавоҳирлар ҳақида билимлар китоби. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017
2. Abu Rayhon Beruniy. Hindlarning grammatika va she‘r haqidagi kitoblari bayonidan. – Sharq mumtoz poetikasi N. Boltaboyev talqinida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008
3. А.Ирисов, А.Носиров, И.Низомиддинов. Ўрта Осиёлик қирқ олим. – Тошкент, 1961
4. А.Расулев. Абу Райхон Беруний. – Тошкент: Фан, 1968
5. А.Расулев. Беруний ва унинг шеърлари ҳақида баъзи мулоҳазалар. – Тошкент: Фан, 1978
6. А. Қаюмов. Беруний ва адабиёт. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1974
7. Булгаков. П. Г. Жизнь и труды Беруни. – Тошкент: Фан, 1972
8. Болтабоев Ҳ. Жаҳон адабиётшунослиги тарихи. Дарслик. 1-китоб – Тошкент, 2019
9. И.Ю.Крачковский. Избранные сочинения. т. IV – Москва-Ленинград: изд-во Акад. наук СССР, 1956
10. Якут ал-Ҳамави. Муъжам ул-удаба. т. 6 – Миср, 1970.